


7-SINF MATEMATIKA 3-VARIANT

- Quyidagi jumalarning qaysi biri noto'g'ri?
 - Ikki bo'g'inli sinq chiziq tekis shakldir;
 - Uch bo'g'inli yopiq sinq chiziq tekis shakldir;
 - Yopiq sinq chiziqda bo'g'inlarining soni eng kamida uchta bo'ladi;
 - ABC uch bo'g'inli yopiq sinq chiziqda $AC < AB + BC$ bo'ladi;
 - ABC uch bo'g'inli yopiq sinq chiziqda $AC > AB + BC$ bo'ladi.
- Beshburchakda beshta diagonal bor, oltiburchakda-chi?
 - 6 ta;
 - 7 ta;
 - 8 ta;
 - 9 ta;
 - 10 ta.
- Ushbu mulohazalarning qaysi biri noto'g'ri?
 - Sinq chiziq bo'g'inlarining yig'indisi uning perimetri deyiladi?
 - Har qanday uchburchakning istalgan tomoni uzunligi qolgan tomonlari uzunliklarining yig'indisidan kichikdir;
 - Sodda yopiq sinq chiziq bilan uning ichki sohasining birlashmasi ko'pburchak deyiladi;
 - Uchlari soni n ta bo'lgan ko'pburchakning bir uchidan chiquvchi diagonal-lari soni $n - 3$ ta bo'ladi;
 - Uchlari soni n ta bo'lgan ko'pburchakning barcha diagonal-lari soni $\frac{n(n-3)}{2}$ ta bo'ladi.
- Diagonal-lari soni 9 ta bo'lgan ko'pburchakning tomonlari soni nechta bo'ladi?
 - 5 ta;
 - 6 ta;
 - 7 ta;
 - 8 ta;
 - 9 ta.
- Tomonlari soni nechta bo'lganda ko'pburchak diagonal-lari soni tomonlari soni-ga teng bo'ladi?
 - 9 ta;
 - 8 ta;
 - 7 ta;
 - 6 ta;
 - 5 ta.
- Quyidagi tasdiqlarning qaysi biri noto'g'ri?
 - Uchburchakning balandliklari bir nuqtada kesishadi;
 - Uchburchakning medianalari bir nuqtada kesishadi;
 - Uchburchakning bissektrisalari bir nuqtada kesishadi;
 - Uchburchakning bissektrisalari kesishishgan nuqtasi unga ichki chizilgan aylana markazidir;
 - Uchburchakning medianalari kesishish nuqtasi uning uchlaridan baravar uzoqlikda yotadi.
- Tomonlari soni nechta bo'lganda ko'pburchakning diagonal-lari soni tomonlari sonidan ikki marta kam bo'ladi?
 - 8 ta;
 - 7 ta;
 - 6 ta;
 - 5 ta;
 - 4 ta.
- Teng yonli uchburchakning asosi yon tomonidan ikki marta kichik va perimetri 50 sm bo'lsa, tomonlari uzunliklarini toping.
 - 10 sm, 20 sm, 20 sm;
 - 5 sm, 22,5 sm, 22,5 sm;
 - 8 sm, 21 sm, 21 sm;
 - 6 sm, 22 sm, 22 sm;
 - 15 sm, 17,5 sm, 17,5 sm.
- Perimetri 40 sm bo'lgan ABC teng yonli uchburchakning BC asosi. BCD teng tomonli uchburchakning perimetri esa 45 sm ga teng. AB va BC tomonlar uzunliklarini toping (155-chizma).
 - 15 sm, 20 sm;
 - 15 sm, 17,5 sm;
 - 15 sm, 12,5 sm;
 - 15 sm, 15 sm;
 - 15 sm, 22,5 sm.



- 156-chizmadagi x burchakning kattaligini toping.
 - 70° ;
 - 60° ;
 - 50° ;
 - 40° ;
 - 30° .